



O'ZBEK VA INGLIZ SO'ZLASHUVCHILARI ORASIDAGI PRAGMATIK XATOLARDA UCHRAYDIGAN TUSHUNMOVCHILIKLARNI TAHLIL QILISH

Turon International University,
Lingvistika (Ingliz tili) mutaxassisi, magstiranti
Ergashaliyeva Hilola Husniddin qizi

Annotatsiya: O'zbek va ingliz so'zlashuvchilari orasidagi muloqot jarayonida uchraydigan pragmatik xatolar o'ziga xos muloqot muammolarini vujudga keltiradi. So'zlashuvchilarning ikki xil madaniyat, til va dunyoqarashdan kelib chiqqan holda bir-birini noto'g'ri anglab, turli tushunmovchiliklarga sabab bo'lishi, hozirgi globallashtirilgan davrda yanada keng yuzaga chiqmoqda. Pragmatika, odatda, tildan real muloqot sharoitida qanday foydalanilishini, so'zlovchining maqsadi va tinglovchi tomonidan bu ma'nolarning qay darajada to'g'ri anglanishini o'rganadi. Tilning faqat grammatik va leksik taraqqiyoti emas, balki uning muloqot jarayonlaridagi kontekstual ishlatilishi ham muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: pragmatik xatolar, madaniyatlararo muloqot, nutq etiketlari, so'zlashuv muammolari, bevosita ifoda, bilvosita nutq, so'zlovchi maqsadi, muloqot konteksti, ijtimoiy rol, tushunmovchilik.

Аннотация: Прагматические ошибки, возникающие в процессе общения между носителями узбекского и английского языков, создают специфические коммуникативные проблемы. В современную эпоху глобализации всё чаще встречается ситуация, когда говорящие, принадлежащие к разным культурам, языкам и мировоззрениям, неправильно понимают друг друга и допускают различные недоразумения. Прагматика в целом изучает, как язык используется в реальных коммуникативных ситуациях, намерения говорящего и степень правильности понимания этих значений слушателем. Важным фактором является не только



грамматическое и лексическое развитие языка, но и его контекстуальное использование в коммуникативных процессах.

Ключевые слова: *прагматические ошибки, межкультурная коммуникация, речевой этикет, коммуникативные проблемы, прямая речь, косвенная речь, намерения говорящего, коммуникативный контекст, социальная роль, недопонимание.*

Abstract: *Pragmatic errors that occur in the process of communication between Uzbek and English speakers create specific communication problems. The fact that speakers, coming from two different cultures, languages, and worldviews, misunderstand each other and cause various misunderstandings is becoming more widespread in the current globalization era. Pragmatics generally studies how language is used in real communication situations, the speaker's intention, and the extent to which these meanings are correctly understood by the listener. Not only the grammatical and lexical development of language, but also its contextual use in communication processes is an important factor.*

Keywords: *pragmatic errors, intercultural communication, speech etiquette, communication problems, direct expression, indirect speech, speaker's intention, communication context, social role, misunderstanding.*

KIRISH

Pragmatik xatolar, eng avvalo, har bir tilning o'ziga xos nutq etiketlari, ijtimoiy rollar va muomala me'yorlarida aks etadi. O'zbekiston fuqarosi ingliz tilida gapirishga harakat qilar ekan, yoki aksincha ingliz tilidan foydalanuvchi o'zbek tilida muloqot olib borar ekan, ular ko'pincha lingvistik bilimlarni emas, aynan muloqot madaniyatini, nutq etiketini, nutq strategiyalarini yetarlicha o'zlashtirmaganliklari sababli xatolarga yo'l qo'yadilar. Bu esa taraflar o'rtasida nizolar, tushunmovchiliklar, hatto ba'zan ijtimoiy noroziliklarga sabab bo'lishi mumkin. Pragmatik xatolar deb, tilning kontekstual ishlatilishiga oid qoidalarni buzish oqibatida yuzaga chiqadigan xatolarni atash mumkin. Yirik pragmatik xatolardan biri – to'g'ridan-to'g'ri gapirish va zaminli nutqqa e'tibor bermaslikdir. O'zbek tilida



so‘zlashuvchilar, odatda, muomala jarayonida bilvosita, o‘ramli ifodalardan foydalanadilar: iltifotli suhbatlar, muloqatdoshning yuzini saqlab qolish, ziddiyatdan qochishga harakat qilish keng tarqalgan. Masalan, o‘zbeklar bevosita rad etish o‘rniga “Balki keyinroq”, “Fikrlab ko‘ray”, “Ishlarim ko‘p ekan” tarzidagi muloyim, o‘ramli gaplar orqali rad qiladi. Bunday nutq strategiyalari ingliz so‘zlashuvchilari uchun begona bo‘lishi mumkin, chunki ingliz tilida asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri, aniq va qisqa ifodalardan foydalaniladi. Agar ingliz so‘zlovchisi o‘zbek tilida muloqot jarayonida ham aniq va ochiq rad javobini bersa, u o‘zbek so‘zlashuvchisi tomonidan qo‘pol, hurmatsiz sifatida baholanadi. Shuningdek, ingliz tilida bevosita ochiq so‘zlash ilg‘or deb hisoblanadi. Masalan, “No, I don't want this” (Yo‘q, men buni xohlamayman) kabi ifoda o‘zbek muloqatida noqulay vaziyatga sabab bo‘lishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

So‘zlashuvchilarning bir-biriga murojaat qilish uslublarida ham pragmatik xatoliklar uchraydi. O‘zbek tilida uzoq vaqt muomala qilmagan yoki katta yoshdagi insonlarga “siz” deb murojaat qilish, familiya va ismni to‘liq ishlatish madaniy mezon hisoblanadi. Ingliz tilida esa “you” zamonaviy uslubda oddiy, do‘stona va rasmiylikdan holi bo‘lib, ijtimoiy masofa deyarli sezilmaydi. O‘zbek tilidagi “siz” bilan murojaat yoki tabriklashda ishlatiladigan “Hurmatli”, “Aziz”, “Muhtaram” so‘zlari ingliz tilidagi “Dear” yoki noaniq soddaroq murojaatlar orqali to‘liq anglashilmay qoladi. Natijada, o‘zbek so‘zlovchisi ingliz tilining rasmiylik darajasini yetarlicha his qilmasligi yoki aksincha, ingliz so‘zlovchisi o‘zbek tilida haddan tashqari rasmiy, uzoq, ortiqcha so‘zlarni ishlatib, sun‘iy muomala taassurotini qoldirishi mumkin. Pragmatik xatolar ko‘pincha gapiruvchining madaniy kontekst, an‘analar va qadriyatlarni yetarlicha bilmasligi natijasida sodir bo‘ladi. Masalan, o‘zbeklar uchun sukunat (jim turish) ba‘zi holatda hurmat, rozilik belgisi bo‘lsa, inglizlarda sukunat noqulaylik, suhbatning to‘xtashi, e‘tiborsizlik alomati deb tushuniladi. O‘zbekistonlik talabalarning xorijiy til o‘rganishda ko‘p uchraydigan xatolaridan biri – “gapirishdan oldin o‘ylash”, savolga javobni bir muncha vaqt



o‘ylab, sekin berish, natijada ingliz tilida bu javob kutish boshqa tarafdin befarqlik sifatida qabul qilinishi mumkin. Marosim, tabrik va suhbatsimon so‘zlashuvlardagi pragmatik xatolar ham bir qancha noxush holatlarni keltirib chiqaradi. O‘zbekiston madaniyatida tug‘ilgan kun, bayramlarda uzoq, muborakbod so‘zlariga, istaklarga boy so‘zlashuv qabul qilingan. Ingliz madaniyatida esa qisqa, aniq va ortiqcha mubolag‘asiz tabriklar umumqabul qilingan. Ikkala til so‘zlashuvchisi o‘z ona tilidagi me‘yorlarni boshqa tilli muomalada ham qo‘llashga moyil bo‘lishadi va bu aynan pragmatik xatolikka olib keladi. Suhbatdoshning shaxsiy fikrini bildirish, tanqidiy nuqtayi nazardan gapirishda ham pragmatik xatolar uchraydi. O‘zbek tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tanqid qilish ma‘qul emas, tanqid o‘ramli, muloyim tarzda ifodalanadi. Ingliz tilida esa tanqid, qarama-qarshi fikr ochiq va bexavotir aytilishi mumkin. O‘zbek so‘zlashuvchisi ingliz tilida gapirganda, o‘zining muloyim ifodalarini ishlatishda davom etsa, uning fikri loqaydlik yoki kuchsiz pozitsiya sifatida qabul qilinishi mumkin. Aksincha, ingliz so‘zlovchisining ochiq tanqidi o‘zbeklar uchun tajovuz sifatida baholanadi [1].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Pragmatik xatolar ko‘plab intervyu, muzokara, ish suhbati yoki xizmat ko‘rsatish sohasida ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, ingliz tilida “What do you want?” (Nimani xohlaysiz?) so‘rovi do‘stona yoki oddiy suhbatda qabul qilinsa ham, o‘zbek tilida bu ifoda ko‘proq talabchan, hurmatsiz sifatida ko‘riladi. O‘zbek tilida “Nimani xohlardingiz?”, “Sizga qanday yordam bera olishim mumkin?” kabi iltifotli, yumshoq ifodalar ustun hisoblanadi. So‘zlashuvchilarning hazil, iqtiboslar va ramziy ifodalardan foydalanishida ham pragmatik xatolar kuzatiladi. Ingliz madaniyatida sarkazm va ironiyaga boy nutq ko‘p ishlatiladi, lekin o‘zbek so‘zlashuvchisi ba‘zan bu ramziy ma‘noni tushunmay, matnga to‘g‘ridan-to‘g‘ri, “literal” yondashadi. Masalan, ingliz “break a leg” (omad tilayman, deya sarkazmli shaklda) iborasini o‘zbek so‘zlashuvchisi jiddiy, hatto yomon niyat deya talqin qilishi mumkin. Fazilat va yomonliklarni baholash tizimidagi pragmatik farqlar ham o‘zaro muloqotda tushunmovchiliklar tug‘diradi. Masalan, o‘zbek madaniyatida



oddiy insoniy xatti-harakatlar ham ko‘proq minnatdorchilik va e‘tirofga sazovor bo‘lsa, ingliz madaniyatida bu kabi holatlar odatiy hisoblanib, ortiqcha e‘tibor va minnatdorchilik bildirilmadi. Masalan, har kuni ishga kelgan do‘stiga “Rahmat”, “Sizga minnatdormiz” deya qayta-qayta minnatdorchilik bildirgan o‘zbek so‘zlashuvchisi ingliz jamiyatida sun‘iy yoki o‘zini ko‘rsatishga urinayotgan dek ko‘rinishi mumkin [2].

Facebook yoki boshqa ijtimoiy tarmoqlarda suhbatda ham pragmatik xatolar tez-tez uchraydi. Ba’zi qisqa “ok”, “good”, “thanks” tipidagi javoblar tushkinlik va befarqlik ramzi sifatida baholanadi, biroq ingliz tilida qisqa javoblar (ayniqsa yoshlar notiqaligida) mahsus inqirozli holat emas, oddiy kommunikatsion odat sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘zbek auditoriyasi uchun ba’zi vaqtlar yetarlicha muomala qilinmadi deya tushuniladi. Pragmatik xatolar oldini olish uchun so‘zlashuvchilarning madaniy kompetensiyasini oshirish, ya’ni ikki til va madaniyat kontekstini yaxshi o‘rganish, ularning ijtimoiy-lingvistik xususiyatlari bilan tanishish muhim ahamiyatga ega. Bunday o‘rganish natijasida so‘zlashuvchilar bir-birini to‘g‘ri anglaydi, noto‘g‘ri xulosa chiqarmaydi, muloqotga ochiq va ijobiy munosabatda bo‘la oladi. Bundan tashqari, til o‘rganuvchilari va mutaxassislar uchun pragmatik kompetensiyani shakllantirishga doir mashg‘ulotlar, o‘quv qo‘llanmalar, ssenariylar, haqiqiy muloqotlardan namunalar orqali ular o‘z amaliy malakalarini oshirishlari mumkin. Chet tilini o‘rgatishda faqatgina grammatik va leksik jihatlar emas, aynan tilning kontekstda qanday ishlatilishi, nutq etiketlari, ijtimoiy-psixologik kontekstlar va madaniy xususiyatlar bilan tanishtirish samarali bo‘ladi. O‘zbek va ingliz so‘zlashuvchilari o‘rtasida duch kelinadigan pragmatik xatolar, aslida jamiyatda madaniy xilma-xillik va o‘zaro anglashuv masalalarini ko‘tarib chiqadi. Har bir til so‘zlashuvchisining o‘z dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy va madaniy mezonlari borligi, ularni bir-biriga to‘g‘ri “tarjima qilish” har doim ham oson emas. Har ikki tomon ham o‘zining va muloqotdoshining til me’yorlariga mehr, ishonch va hurmat bilan yondashsa, tushunmovchilik va noto‘g‘ri baholar sezilarli darajada kamayadi [3].



Tildagi pragmatik xatolar nafaqat soʻzlashuvchilar oʻrtasidagi aloqa, balki xalqaro savdo, diplomatiya, oʻqitish, ilmiy, madaniy va boshqa ijtimoiy sohalardagi muvaffaqiyatga ham bevosita taʼsir koʻrsatadi. Til oʻrganuvchilarga birgina grammatik toʻgʻriligina emas, balki tilni joyida, toʻgʻri kontekstda, madaniyatga muvofiq foydalanish, nutq etiketini oʻrganish, gapirish texnikasi va strategiyalarini bilish zamonaviy kommunikatsion kompetentsiyaga erishishda muhimdir. Soʻzlashuvchilar bilim va malakalarini chuqurlashtirishda koʻproq ingliz va oʻzbek tillarida yetarlicha muloqot qilish, amaliy suhbatlar tashkil etish, madaniy ssenariylar asosida rol oʻyinlar, onlayn yoki jonli muloqotlar oʻtkazish, ilgʻor tajribalarni almashish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari, badiiy film va seriallardagi muloqotlarni tahlil qilish va taqqoslash ham til oʻrganuvchilarga konkret misollar orqali oʻz kompetensiyalarini rivojlantirishda yordam beradi [4].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, pragmatik xatolar har ikki tomon uchun – til soʻzlashuvchilari, oʻqituvchilar va til oʻrganuvchilar uchun muhim didaktik va madaniy ahamiyat kasb etadi. Toʻgʻri pragmatic kompetensiya ijtimoiy kommunikatsiyaning muvaffaqiyatli kechishini, xalqaro doʻstlik va hamkorlik yanada mustahkamlanishini taʼminlaydi. Shu bois, til va madaniyat oʻzaro uygʻunligi zamonaviy til oʻrgatish va suhbat qilishda asosiy tamoyillardan biri boʻlishi lozim. Oʻzaro anglashish va toʻgʻri muloqot uchun, avvalo, har bir soʻzlashuvchi oʻz tilidagi va muomala madaniyatidagi nozik jihatlarni oʻrganishi, boshqa madaniyat vakili bilan muomala qilganda har doim ehtiyotkor, ochiqkoʻngil, empatiyali hamda hurmatli boʻlishi kerak. Pragmatik xatolarning oldini olish va minimallashtirish muammosi til oʻrgatish va kommunikativ amaliyotda muhim oʻrin tutadi. Har bir soʻzlashuvchi, qanday holatlarda va qaysi ifodalar orqali moʻljal nimani bildirishini, biror vaziyatda qanday javob yoki nutq strategiyasi toʻgʻri boʻlishini, qaysi ifodalar esa tushunmovchilik yoki hatto kutilmagan salbiy natijalarga sabab boʻlishi mumkinligini chuqur anglab yetishi lozim. Bu esa ijobiy va samarali xalqaro kommunikatsiya taraqqiyoti uchun eng muhim shartlardan biridir. Soxada davomli



tadqiqotlar, tajribalar va ilg'or yutuqlar asosida nutqdagi pragmatik xatolar, ular sabab bo'layotgan tushunmovchiliklar, ijtimoiy munosabatlardagi noqulay vaziyatlarni bartaraf etish yo'llari ishlab chiqilmoqda. Ilmiy-tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kelgusida til va madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishga doir yondashuvlar va tadqiqotlar yanada ko'payib, bu yo'nalish har ikki til vakillari uchun ham muloqotni yangi bosqichga olib chiqadi. Shu tarzda til o'rganish jarayoni tobora amaliy va hayotiy tajribaga yaqinlashib bora-di, natijada til nafaqat bilim, balki hayotiy muammolarni hal qilish, yangi imkoniyatlar va ko'nikmalarga ega bo'lish vositasiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alimov, A. (2019). "Pragmatik xatolarning o'zbek va ingliz tilidagi so'zlashuvchilarda namoyon bo'lishi". Filologiya masalalari, 2(3), 55-62.
2. Bekmurodova, R. (2018). "So'zlashuv jarayonida madaniy to'siqlar va ularning oqibatlarini". Til va madaniyat, 4(2), 21-27.
3. G'anieva, D. (2021). "Pragmatika va interkultural muloqot: o'zbek va ingliz tili misolida". Zamonaviy tilshunoslik, 5(4), 88-95.
4. Imomova, M. (2019). "Nutq etiketi va uning muloqot sifati uchun ahamiyati". Muloqot va madaniyat, 3(1), 65-72.
5. Jabborova, U. (2018). "Madaniyatlararo kommunikatsiyada tushunmovchiliklar va ularni bartaraf etish usullari". Lingvistika yangiliklari, 6(3), 13-20.
6. Karimov, S. (2020). "O'zbek va ingliz tilidagi bilvosita nutq". Pragmafilologiya axborotnomasi, 2(5), 102-110.
7. Nuriddinova, Z. (2021). "Muloqot kontekstida so'zlovchi maqsadining aniqlanishi". Til va Adabiyot, 9(2), 48-54.
8. Rahmonova, L. (2022). "Ingliz va o'zbek tili so'zlashuvchilari nutqidagi muloqot muammolari". Zamonaviy filologiya, 10(1), 75-83.
9. Yusupova, N. (2017). "So'zlashuvdagi ijtimoiy rollar va ular orasidagi farqlar". Tilshunoslik yutuqlari, 3(2), 59-66.